



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024-yil yanvar-fevral oyi
uchun dastlabki ma'lumot*

SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(76) 225-65-74



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 65 612,5 ming AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 19 365,0 ming AQSH dollariga yoki 41,9 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: **65 612,5** +41,9 %

(2023-y.: **46 247,5**)



Saldo

2024-y.: **3 540,7** (2023-y.: **12 632,1**)




Eksport

2024-y.: **34 576,6** +17,4 %

(2023-y.: **29 439,8**)

TSA'dagi ulushi, % da



52,7



Import


2024-y.: **31 035,9** +84,7 %

(2023-y.: **16 807,7**)



47,3

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi 34 576,6 ming AQSH dollariga (17,4 % ga ko‘paydi) va import hajmi 31 035,9 ming AQSH dollariga (84,7 % ko‘paydi). Hisobot davrida 3 540,7 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-fevral, ming AQSH dollari)

<p>Turkiya</p> <p>TSA – 17 053,7</p> <p>Eksport: 1 569,3 Import: 15 484,4</p> <p> 26,0 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 16 026,9</p> <p>Eksport: 13 617,4 Import: 2 409,5</p> <p> 24,4 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 12 648,9</p> <p>Eksport: 9 263,0 Import: 3 385,9</p> <p> 19,3 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 5 742,4</p> <p>Eksport: 5 281,2 Import: 461,2</p> <p> 8,8 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 3 757,3</p> <p>Eksport: 2 928,3 Import: 829,0</p> <p> 5,7 %</p>
<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 2 197,9</p> <p>Eksport: 197,0 Import: 2000,9</p> <p> 3,3 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 1 546,3</p> <p>Eksport: 0,1 Import: 1 546,2</p> <p> 2,4 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 1 288,6</p> <p>Eksport: 108,7 Import: 1 180,0</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 1 195,8</p> <p>Eksport: 0,4 Import: 1 195,4</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 540,0</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 540,0</p> <p> 0,8 %</p>







Surxondaryo viloyati jahonning 43 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (26,0 %), Pokistonda (24,4 %), XXRda (19,3 %), Rossiyada (8,8 %), Afg‘onistonda (5,7 %), Qozog‘istonda (3,3 %), Germaniyada (2,4 %), Eron (2,0 %), Hindistonda (1,8 %) va Turkmaniston (0,8 %) qayd etilgan.



SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming AQSH dollari)


Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Turkiya	7 471,0	3 529,6	17 053,7
 Eksport	5 106,2	2 298,8	1 569,3
Import	2 364,8	1 230,8	15 484,4
Pokiston	12 224,7	14 875,9	16 026,9
 Eksport	4 775,3	9 400,5	13 617,4
Import	7 449,4	5 475,4	2 409,5
XXR	18 942,9	12 953,4	12 648,9
 Eksport	13 366,3	8 865,9	9 263,0
Import	5 576,6	4 087,4	3 385,9
Rossiya	10 599,7	3 853,3	5 742,4
 Eksport	4 295,2	3 005,5	5 281,2
Import	6 304,5	847,8	461,2
Afg'oniston	3 641,3	1 919,7	3 757,3
 Eksport	3 469,8	1 849,0	2 928,3
Import	171,5	70,7	829,0
Qozog'iston	6 568,7	2 291,3	2 197,9
 Eksport	5 078,3	698,1	197,0
Import	1 490,4	1 593,2	2 000,9
Germaniya	545,6	259,1	1 546,3
 Eksport	449,2	84,9	0,1
Import	96,4	174,1	1 546,2
Eron	1 633,0	1 080,7	1 288,6
 Eksport	1 183,1	898,0	108,7
Import	450,0	182,7	1 180,0
Hindiston	974,9	845,4	1 195,8
 Eksport	208,4	446,2	0,4
Import	766,6	399,2	1 195,4
Turkmaniston	274,6	323,7	540,0
 Eksport	88,2	101,3	
Import	186,4	222,5	540,0

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Polsha	72,7	66,9	524,8
	<i>Eksport</i>	0,02	31,3	136,4
	<i>Import</i>	72,6	35,6	388,4
	Belarus	184,6	276,2	508,5
	<i>Eksport</i>	172,7	39,1	508,5
	<i>Import</i>	11,9	237,1	-
	Ekvador	184,4	25,8	365,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	184,4	25,8	365,2
	Avstriya	-	-	326,0
	<i>Eksport</i>	-	-	0,0
	<i>Import</i>	-	-	326,0
	Tojikiston	879,4	1395,1	279,9
	<i>Eksport</i>	486,3	708,7	181,1
	<i>Import</i>	393,2	686,3	98,8
	Ozərbayjon	307,5	230,1	271,6
	<i>Eksport</i>	307,5	230,1	271,6
	<i>Import</i>	-	-	-
	Daniya	-	-	252,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	252,6
	Latviya	-	0,1	110,5
	<i>Eksport</i>	-	0,1	110,5
	<i>Import</i>	-	-	-
	Qirg'iz Respublikasi	629,0	448,9	100,9
	<i>Eksport</i>	324,8	435,5	37,0
	<i>Import</i>	304,2	13,4	63,9
	BAA	147,4	124,2	95,8
	<i>Eksport</i>	147,4	122,3	4,0
	<i>Import</i>	-	1,9	91,8



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2024-yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)*



Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani **26,4 %** ulush bilan **17 339,6** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bandixon tumanida **1,5 %** ulush bilan **960,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 14,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga kamaydi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-fevral oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 85,3 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, 9 674,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 6 509,8 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 3 164,7 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI


(2024-yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (59,4 %), Qozog'iston (22,7 %), Turkmaniston (5,6 %) hamda Belarus (5,3 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SURXONDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral, ming AQSH dollari)



Surxondaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 8 549,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 6 023,7 ming AQSH dollari, import hajmi esa 2 526,0 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni 120 taga yetdi va ular tomonidan 34 576,6 ming AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 17,4 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-fevral, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	29 439,8	34 576,6	73,9	117,4	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15 036,2	18 418,2	91,9	122,5	51,1	53,3
Ichimliklar va tamaki	153,1	-	-	-	0,5	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	910,7	1 094,7	40,4	120,2	3,1	3,2
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	35,2	89,2	151,8	2,5 m.	0,1	0,3
Sanoat tovarlari	12 705,7	13 046,8	61,9	102,7	43,2	37,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	6,4	428,4	122,5	66,7 m.	-	1,2
Turli xil tayyor buyumlar	58,5	671,3	48,9	11,5 m.	0,2	1,9
Xizmatlar	534,0	828,1	133,5	155,1	1,8	2,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,6 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (53,3 %), sanoat tovarlari (37,7 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (3,2 %) va turli xil tayyor buyumlar (1,9 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-fevral)


XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	16 978,6	122,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 407,9	125,5
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	29,8	6,3 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	1,8	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
Moy olinadigan urug‘lar va moy olinadigan mevalar	746,1	2,7 m.
To‘qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	189,3	2,5 m.
56 bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	82,6	133,7
Xayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	76,7	15,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar		
Bo‘yoqlar, taninlar va bo‘yoqlar	89,2	2,6 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashina va uskunalar	411,8	76,0 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari)	16,1	16,0 m.
Aniq soxalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar	0,6	-

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	12 869,0	105,8
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	84,6	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	62,8	26,8
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	22,4	7,4
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	7,6	2,6 m.
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	0,4	-
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	0,1	1,2
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	289,0	161,1
Moliyaviy xizmatlar	192,1	100,9
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	182,2	-
Boshqa biznes xizmatlari	142,6	2,0 m.
Sayohat	22,2	23,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	636,4	14,6 m.
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	29,9	-
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	5,1	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, ming AQSH dollari, ulushi, % da)

2024-yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga 6 509,8 ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 18,8 % ini tashkil etdi.



2024-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston, XXR, Rossiya, Afg'oniston, Turkiya, Belarus va Ozarbayjon kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 96,7 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-fevral, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Pokiston	9 400,5	13 617,4	196,9	144,9	1	1
XXR	8 865,9	9 263,0	66,3	104,5	2	2
Rossiya	3 005,5	5 281,2	70,0	175,7	3	3
Afg'oniston	1 849,0	2 928,3	53,3	158,4	5	4
Turkiya	2 298,8	1 569,3	45,0	68,3	4	5
Belarus	39,1	508,5	22,6	13,0 m.	17	6
Ozarbajjon	230,1	271,6	74,8	118,0	11	7
Qozog'iston	698,1	197,0	13,7	28,2	8	8
Tojikiston	708,7	181,1	145,8	25,6	7	9
Polsha	31,3	136,4	1843,5 m.	4,4 m.	18	10
Latviya	0,1	110,5	-	2080,1 m.	21	11
Eron Islom Respublikasi	898,0	108,7	75,9	12,1	6	12
Peru	-	55,4	-	-	0	13
Misr	-	49,7	-	-	0	14
Qirg'iz Respublikasi	435,5	37,0	134,1	8,5	10	15
Ukraina	-	33,2	-	-	0	16
Xitoy, Gonkong MMR		14,9	-	-	0	17
BAA	122,3	4,0	83,0	3,3	13	18
Iroq	128,8	2,6	111,1	2,1	12	19
AQSh	3,9	1,7	141,2	43,2	19	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)*



Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani 17,6 % bilan 6 091,2 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun 1,6 % bilan 566,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-fevral oylarida 34 446,9 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,2 m. yoki 23 766,0 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (71,7 %), Rossiya (15,1 %), Afg'oniston (9,8 %), Ozarbayjon (1,1 %) hamda Latviya (1,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024-yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 18 397,8 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 24,6 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 53,2 % ni tashkil etdi.








MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-fevral, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum quritilgan</p> <p>57,4 ming AQSH dollari</p> <p>48,0 tonna</p> <p>96,4 % ↓</p>	<p>Karam</p> <p>477,7 ming AQSH dollari</p> <p>1 198,7 tonna</p> <p>3,2 m. ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>9 095,9 ming AQSH dollari</p> <p>28 399,5 tonna</p> <p>100,0 % ↑</p>	<p>Dukkakli donli ekinlar</p> <p>4 866,4 ming AQSH dollari</p> <p>1 465,9 tonna</p> <p>50,4 % ↓</p>
<p>Uzum</p> <p>162,4 ming AQSH dollari</p> <p>158,8 tonna</p> <p>98,5 % ↑</p>	<p>Yer yong'oq</p> <p>656,1 ming AQSH dollari</p> <p>519,5 tonna</p> <p>2,5 m. ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>324,9 ming AQSH dollari</p> <p>240,3 tonna</p> <p>2,9 m. ↑</p>	<p>Meva va rezavorlar</p> <p>376,3 ming AQSH dollari</p> <p>286,0 tonna</p> <p>74,4 % ↓</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-fevral)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	26 275,3	13 454,7	73,1
 Rossiya	2 970,1	2 844,8	15,5
 Afg'oniston	4 293,6	1 480,2	8,0
 Ozarbayjon	150,5	231,6	1,3
 Belarus	62,1	121,4	0,7
 Latviya	317,2	109,9	0,6
 Qozog'iston	84,0	52,4	0,3
 Polsha	89,6	34,9	0,2
 Ukraina	45,0	32,6	0,2
 Tojikiston	42,9	28,7	0,2
 Boshqa davlatlar	116,6	6,7	0

* qiymat ifodasidan



2024-yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 73,1 %).



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.


To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-fevral oyi yakuni bo'yicha 13 505,3 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,3 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 39,1 % ga oshdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (85,6 %), gazlamalar (9,4 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (4,7 %) va gilamlar (0,3 %), asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning 6 ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming AQSH dollari)



DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ming AQSH dollari)



		2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati, % da
	XXR	7 369,0	9 178,4	124,6
	Rossiya	1 728,3	1 844,7	106,7
	Turkiya	2 129,8	1 425,1	66,9
	Afg‘oniston	5,9	595,4	100,6 m.
	Eron	-	108,7	-
	Pokiston	487,9	106,8	21,9
	Polsha	-	101,3	-
	Peru	-	55,4	-
	Misr	-	49,7	-
	Ozarbayjon	-	39,8	-
	Armeniya	76,6	-	-
	Qirg‘iz Respublikasi	106,7	-	-
	BAA	40,8	-	-
	Tojikiston	299,9	-	-





To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi XXR (68,0 % – 9 178,4 ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (13,7 % – 1 844,7 ming AQSH dollari), Turkiya (10,6 % – 1 425,1 ming AQSH dollari) va Afg‘oniston (4,4 % – 595,4 ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



 Xizmatlar eksporti hajmi 828,1 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,7 % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 55,1 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (34,9 %), moliyaviy (23,2 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (22,0 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (17,2 %) va safarlar (turizm) (2,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI




2024-yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 31 035,9 ming AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 184,7 % tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (66,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,8 %), hamda sanoat tovarlari (5,8 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14 178,6 ming AQSH dollariga ko‘paydi va 30 920,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 115,8 ming AQSH dollariga yetdi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-fevral, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	16 807,7	31 035,9	62,2	184,7	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6 897,7	5 533,3	70,8	80,2	41	17,8
Ichimliklar va tamaki	-	50,2	-	-	-	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	78,4	140,7	21,7	179,5	0,5	0,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	213,7	587,2	123,4	2,7 m.	1,3	1,9
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	552,9	1 607,6	49,2	2,9 m.	3,2	5,2
Sanoat tovarlari	1 933,9	1 811,6	28,6	93,7	11,5	5,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	6 852,7	20 492,5	78,7	3,0 m.	40,8	66
Turli xil tayyor buyumlar	212,2	696,9	3,3 m.	3,3 m.	1,3	2,2
Xizmatlar	66,2	115,8	98,1	174,8	0,4	0,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-fevral)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	3 828,7	65,1
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	874,8	-
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	345,7	39,5
Go'sht va go'sht mahsulotlari	217,9	-
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	172,2	157,6
Shakar, shakardan mahsulotlari va asari	72,4	-
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17,2	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2,5	-
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	2,0	6,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	140,7	179,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	540,0	2,5 m.
Ko'mir, koks va briketlar	47,3	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 137,8	3,4 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	141,4	183,2
Organik kimyoviy moddalar	136,1	4,8 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	110,9	118,2
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	52,2	-
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13,8	136,7
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	13,6	44,3 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,6	4,1 m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,2	2,4


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Turli xil tayyor buyumlar		
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarini blokli binolar, armatura va mahkamlash	448,0	184,7 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	134,1	108,6
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	52,5	190,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	46,5	23,4 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	14,2	33,4
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	1,3	261,6 m.
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	0,2	1,5
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 682,9	2,5 m.
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	63,3	35,2
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	22,3	15,1
Rangli metallar	17,2	125,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	16,2	27,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	9,5	5,2
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	0,1	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	8 834,0	7,2 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	8 095,0	2,7 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalari	1 531,5	61,5 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 453,6	6,3 m,
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	340,1	14,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	119,5	61,2 m.
Metallni qayta ishlash mashinalari	78,9	108,5
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalari	40,0	11,3 m.



2024-yil yanvar-fevral natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 10,2 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,3 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-fevral oylarida viloyatimiz 27 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, XXR, Pokiston, Qozog'iston, Germaniya, Hindiston va Iron) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-fevral, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Turkiy	1 230,8	15 484,4	52,0	12,6 m.	4	1
XXR	4 087,4	3 385,9	73,3	82,8	2	2
Pokiston	5 475,4	2 409,5	73,5	44,0	1	3
Qozog'iston	1 593,2	2 000,9	106,9	125,6	3	4
Germaniya	174,1	1 546,2	180,6	8,9 m.	14	5
Hindiston	399,2	1 195,4	52,1	3,0 m.	8	6
Eron	182,7	1 180,0	40,6	6,5 m.	13	7
Afg'oniston	70,7	829,0	41,2	11,7 m.	16	8
Turkmaniston	222,5	540,0	119,4	2,4 m.	11	9
Rossiya Federatsiyasi	847,8	461,2	13,4	54,4	6	10
Polsha	35,6	388,4	49,0	10,9 m.	18	11
Ekvador	25,8	365,2	14,0	14,2 m.	20	12
Avstriya	-	326,0	-	-	-	13
Daniya	-	252,6	-	-	-	14
Tojikiston	686,3	98,8	174,6	14,4	7	15
Vengriya	-	93,1	-	-	-	16
BAA	1,9	91,8	-	48,5 m.	24	17
Estoniya	-	81,5	-	-	-	18
Qirg'iz Respublikasi	13,4	63,9	4,4	4,8 m.	22	19
Italiya	42,7	59,4	15,5	139,2	17	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024-yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)*



2023-y.

2024-y.


Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Angor 36,2 % bilan 11 248,4 ming AQSH dollarini, eng quyi, Jarqo'rg'on 0,5 % bilan 151,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 1 811,6 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,3 % kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 5,8 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN HAMKOR DAVLATLAR (2024-yil yanvar-fevral)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (1 682,9 ming AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (63,3 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (22,3 ming AQSH dollari), rangli metallar (17,2 ming AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar (16,2 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (9,5 ming AQSH dollari) va noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (0,1 ming AQSH dollari) tashkil topgan.